

INSONIYAT TARIXIDA HADISLAR...

Xurramova Maxliyo Bahodir qizi Alisher Navoiy

nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti

universiteti I kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hadislarning yaralish jarayoni, jamiyatdagi muammo va kamchiliklarga yechimlari, bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan. Sahih va nosahih hadislar, ishobchli hadisni ishonchsizdan farqlay olish singari tushunchalarga to’xtalingan. Soxta hadislar nima sababdan yuzaga kelgani yoritilgan.

Abstract: This article describes the creation process of hadiths, solutions to problems and shortcomings in society, and their importance today. Concepts such as authentic and inauthentic hadith, distinguishing reliable from unreliable hadith are discussed. It is explained why the fake hadiths came about.

Аннотация: В данной статье описывается процесс создания хадисов, решения проблем и недостатков в обществе, а также их значение сегодня. Обсуждаются такие понятия, как достоверный и недостоверный хадис, отличие достоверного хадиса от недостоверного. Объясняется, почему появились фальшивые хадисы.

Kalit so‘zlar: hadis, ma’naviyat, muammo, yechim, dolzarblik, ishonchli, o‘rnak, xulosa, ibrat.

Key words: hadith, spirituality, problem, solution, relevance, reliable, example, conclusion, lesson.

Ключевые слова: хадис, духовность, проблема, решение, актуальность, достоверный, пример, вывод, урок.

“Hadis” arab tilida “gap-so‘z” ma’nosini anglatadi. Demak, Hadis deganda Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning aytgan gap-so‘zlari ko‘zda tutiladi va tushuniladi.

Hadis ilmi bilan shug‘ullanuvchi olimni muhaddis deb ataymiz. Muhaddislar asosan, hadisni Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamdan qaysi yo‘llar bilan, kimlar orqali rivoyat qilinib, o‘zlarigacha yetib kelganini aniqlaydigan olimlardir¹.

Sunnat (hadis) esa ma’nosi Allohdan, lafzi Payg‘ambardan bo‘lgan vahiydir. Din-diyonat, shariat va boshqa ma’nolarda Payg‘ambarimiz alayhissalom o‘z shaxsiy fikrlarini emas, Allohning vahiysini o‘z iboralari bilan taqdim etganlar².

Sunnat va Hadis bir-birining o‘rnida ishlatib kelingan istilohlardir. Ularga yaxshilab diqqat qilinsa, Hadis xosroq, Sunnat umumiyroq ekani ko‘rinadi.

Umumta’lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan Adabiyot darsligida hadislar haqida quyidagi ma’lumotlar keltirilgan: Hadis arabcha so‘z bo‘lib, xabar, gap, yangilik kabi bir qancha ma’nolarni bildiradi.

Hadislar Qur’ondan keying muqaddas manba bo‘lib, payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi vasallam)ning aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, bergen ko‘rsatmalari hisoblanadi.

Hadislarni roviylar (rivoyat qiluvchi, aytuvchilar) yig‘gan. Roviylar esa ikki toifaga bo‘lingan: sahabalar va tobeinlar.

Sahabalar-payg‘ambarimizni ko‘rgan, u kishi bilan suhabatda bo‘lgan insonlar.

Tobeinlar esa sahabalarni ko‘rib, ulardan eshitganlarini aytuvchi kishilardir.

Hadis ikki qism: sanad va matndan iborat bo‘lgan. Sanad hadisning qachon, qanday sharoitda va kimlar huzurida aytilgani haqidagi asos, matn esa uning mazmuni hisoblanadi.

Hadislarni to‘plib, ularning haqiqiyalarini aniqlash bilan shug‘ullangan olimlar muhaddis deyiladi³.

Umumta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan Adabiyot darsligida Imom al-Buxoriyning ilm olishdagi mashaqqatli hayot yo‘li

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. T.: Hiloc nashr 1990. –B.8.

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. T.: Hiloc nashr 1990. –B.12.

³ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. T.: Hiloc nashr 1990. –B.28

haqida va “Al jome’ as-sahih” to‘plamidan hadislar berilgan. “Hadislar haqida” sarlavhasi ostida hadislar haqida quyidagilarni o‘qiyimiz:

Shu o‘rinda hadisga berilgan ta’rifga e’tibor qaratamiz. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning aytganlari, ko‘rsatmalari, biror masala (narsa, voqeа-hodisa, xatti-harakat) yuzsidan bergan qarorlari hadis sanaladi. Hadislarning ahamiyatini ham chuqur idrok etishimiz lozim.

Darslikda hadislar haqida, ularning hayotimizda tutgan o‘rni haqida asosli fikrlar keltirilgan. Fikrni dalillash uchun hadislardan ham foydalanilgan. O‘quvchi bilishi kerak bo‘lgan yana bir jihat sunnat tushunchasi va uning tarkibidir. Biz quyidalarni keltirishni lozim topdik:

Sunnat so‘zi arab tilida “tariqat–ma’naviy yo‘l” degan ma’noni anglatadi. “Falonchining sunnati” deganda o‘sha odamning hayotiy yo‘li tushuniladi. . Shundan kelib chiqib, “Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari” deganda u zotning tariqatlari, yo‘llarini tushunamiz. Sunnat muhaddislar istilohida quyidagicha ta’rif qilinadi:

“Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamdan asar bo‘lib qolgan gap, ish, taqrir, xalqiy (tana tuzilishi), axloqiy sifatlar va tarjimai holga tegishli ma’lumotlar “Sunnat” deyiladi”.

1. Gap–bunga Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning turli holat va munosabatlarda aytgan gaplari kiradi.

Misol uchun, u zot sollallohu alayhi vasallam “Albatta, ishlar niyatga bog‘liqdir”, deganlar.

Mana shu muborak gapni eshitgan odamlar uni omonat tariqasida eshitmaganlarga yetkazganlar vas hu tarzda avloddan avlodga o‘tib, muhaddis olimgacha yetib kelgan. Muhaddis esa ilmiy yo‘llar bilan tekshirib, uning hadis ekaniga ishonch hosil qilgandan so‘nggina kitobiga kiritgan. Bu “qavliy (gap) sunnat” deyiladi.

2. Ish–deganda Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning qilgan ish-amallari tushuniladi. Aytaylik, tahorat qilishlari, namoz o‘qishlari, haj ibodatini

ado etishlari va boshqa ishlari. U zotning shunga o‘xshash amallarini ko‘rganlar ko‘rmaganlarga aytib, ko‘rsatib bergenlar. Bunday ma’lumotlar shu tariqa hadis olimiga yetib kelgan va Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning qilgan ishlari sifatida asar bo‘lib qolgan. Buni “amaliy (ish) sunnat” deyiladi.

3. Taqrir–bir narsaga iqror bo‘lish, uning to‘g‘riligini tasdiqlash–ma’qullah ma’nosini anglatadi. Sunnatdagi taqrir esa Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning sahabai kiromlar tomonidan sodir bo‘lgan ba’zi narsalarni ma’qullahlaridan iborat.

4. “Xalqiy” sifat deb tana tuzilishidagi sifatlarga aytildi. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamni ko‘rgan kishilar uz otning bo‘y-bastlari, tana tuzilishlari, sochlari, ko‘zлari va boshqa a’zolarini batafsil vasf qilib bergenlar. Bu ma’lumotlar ham rivoyat bo‘lib, muhaddislarga, ular orqali islam ummatiga yetib kelgan. Imom Termiziyning “Shamoili Muhammadiya” asarlari shu masalaga bag‘ishlangan kitobdir.

5. “Xulqiy-axloqiy sifatlar”. Sahobai kiromlar Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning sabrlari, hilmlari, shijoatlari, saxiyliklari kabi barcha axloqiy fazilatlarini ham rivoyat qilib qoldirganlar. Bu haqdagi ma’lumotlar sunnatga kiradi.

6. Tarjimai hol. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning muborak hayotlari, u zotning tavallud topganlaridan boshlab, to Robblari dargohiga yetgunlaricha bo‘lgan tarjimai hollari o‘ta aniqlik va butun tafsilotlari bilan rivoyat qilingan.

Hadislar sahib, hasan va zaif deb nomlangan uch turga bo‘linadi:

“Sahih hadis–to‘g‘ri va aql-idrokli kishi to‘g‘ri va aql-idrokli kishidan rivoyat qilgan, Sanadi boshidan oxirigacha uzilmay muttasil bo‘lgan, shoz(z) va muallal bo‘lmagan uzilmagan va nuqsonsiz musnad hadisdir”.⁴

⁴ Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. (Adab durdonalari). T.: O‘zbekiston 1990. –B.197.

“Hasan hadis—odil, sidq va omonatda mashhur, ammo qamrovda sahih talabi darajasiga ko‘tarilmagan roviy rivoyat qilgan, Sanadi muttasil bo‘lib, tobiinlardan Rasululloh sollallohu alayhi vasallamgacha yetib brogan, illatlardan salomat bo‘lgan hadis”.⁵

“Zaif hadis—tarkibida “sahih” va “hasan” hadislarning sifati bo‘lmagan hadis”.⁶

Hadis ikki qismdan iborat bo‘ladi: sanad va matn. Roviylar silsilasi sanad, Payg‘ambarimizning aytgan gaplari esa matn bo‘ladi.

Ulamolar tilida Payg‘ambarimiz tomonidan aytilmagan narsani hadis taqdim etishni “hadis va’z qilish” (qo‘yish) deyiladi. To‘qilgan soxta hadis “mavzu”–soxta, to‘qilgan hadis deb ataladi. Payg‘ambarimiz davrlarida ham, biz yashayotgan zamonda ham nosahih hadislarni uchratamiz. Hadisxon hadislarning sahihini nosahihdan ajrata bilishi kerak. Kishilar orasida shuhrat orttirish, odamlarni o‘ziga qaratish kabi bir qancha sabablar yolg‘on to‘qishga sabab bo‘lishi mumkin. Bu sabablar quyidagicha:

1. Siyosiy ixtiloflar. Bu borada Rofiza mazhabidagilarning soxta hadis aytishda haddan oshganliklari alohida ta’kidlanadi.
2. Zindiqlik. Ya’ni zimdan Islom diniga va davlatiga qarshi kurash olib boruvchi harakat tomonidan hadis to‘qish.
3. Qavmiga, qabilasiga, tiliga, yurtiga va imomiga mutaaassib bo‘lish. Bunda har kim o‘z qavmini, qabilasini, tilini, yurti va imomini maqtab, boshqalarни yomonlab, soxta hadis to‘qiydi.
4. Qissachilik va va’zxonlik. Ba’zi bir johil kishilar odamlarni og‘ziga qaratib, shuhrat qozonish maqsadida turli narsalarni to‘qib, ularni hadis deb da’vo qiladilar.
5. Fiqhiy va e’tiqodiy mazhablardagi ixtiloflar. Bunda ham o‘z mazhabi haq, to‘g‘ri ekanini isbot qilish maqsadida soxta hadis to‘qiydilar.

⁵ Imam al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. (Adab durdonalari). T.: O‘zbekiston 1990. –B.197.

⁶ Imam al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. (Adab durdonalari). T.: O‘zbekiston 1990. –B.198.

6. Johil kishilarning dingga xizmat qilaman, deb urinislari sababli soxta hadislar to‘qiladi;

7. Podshoh va amirlarga yoqish maqsadida ham soxta hadislar to‘qilgan ekan.

Hadislarda jamiyatdagi har bir muammo va masalaga yechim mavjud. Ular zamon va makon tanlamaydi, qaysi asrda yashamang, u muammolaringizga o‘rinli javob beradi. Insoniyat tarixida hayot yo‘li ibratli, mashaqqatli bo‘lgan zot Payg‘ambarimiz Muhammad s.a.vdir. U kishining og‘izlaridan chiqqan har bir so‘z, harakat nasihat, ko‘rsatma sifatida qabul qilingan. Shu o‘rinda ilk hadislar qachondan kitob holiga keltirilgan, degan o‘rinli savol paydo bo‘ladi. Birinchi hijriy asr boshida xalifalik qilgan, ko‘pchilik tomonidan beshinchi roshid xalifa deb tan olingen Umar ibn Abdulaziz Ibn Shihob az-Zuhriydan va boshqa muhaddislardan omma uchun hadis kitobi yozishni so‘radi. Ibn Shihob az-Zuhriy sodda qilib, bir kitob ta’lif qildi. Boshqalar ham unga ergashdilar. Rasmiy ravishda hadis kitoblar yozish shundan boshlandi⁷.

Hadislarni sahih va nosahihga ajratish nihoyatda mas’uliyatli ishdir. Bu haqida Imom al-Buxoriy o‘zining “Jome’us-Sahih” kitoblarida keltirgan birinchi hadis misolida keltiramiz:

“Bizga al-Humaydiy Abdulloh ibn az-Zubayr ushbu hadisni aytdi. U Sufyondan eshitgan ekan. Sufyon Yahyo ibn Sa’id al-Ansoriydan eshitgan. U “Muhammad ibn Ibrohim at-Taymiy menga xabar berdi” degan. U esa Alqama ibn Vaqqos al-Laysiydan eshitgan. Al-Laysiy aytadiki, u Umar ibn Xattob “Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan quyidagilarni eshitdim”, deydi:

“Albatta, amallar niyatga bog‘liqdir. Har bir odamga niyat qilgani bo‘ladi. Kimki dunyo uchun hijrat qilsa, unga erishadi. Xotin uchun bo‘lsa, uni nikohlاب oladi. Bas, uning hijrati –nima uchun hijrat qilsa, shuning uchun bo‘ladi.

⁷⁷ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 1-juz.T.: Hilol nashr 1990. –B 25

Ushbu hadisning muallifi Payg‘ambarimiz bo‘lib, olti kishidan o‘tib Imom Buxoriyga yetib kelgan. Buxoriy al-Humaydiydan hadisni eshitishi bilan darhol uni yozib qo‘umaydi. Balki hadisni sanad va matnga bo‘lgan.

Sanad so‘zi arab tilida “suyanchiq” ma’nosini anglatadi. Muhaddislar istilohida esa hadis matniga olib boruvchi suyanchiq yo‘lga sanad deyiladi. Musulmonlarning bunday jihatni musulmon bo‘limganlarda kamdan kam uchraydi.

Hadislarning yaralish tarixi, ular kim tomonidan aytildi, hadislarni rivoyat qiluvchilar haqida ma’lumot bera turib bir haqli savol paydo bo‘ladi. Adabiyot darslarida, darsliklarida hadislarni o‘rganishdan, o‘rgatishdan maqsad nima? Bundan maqsad bugun biz yashayotgan, Kundan kunga golaballahayotgan dunyodagi har bir muammoga hadislar bilan javob topamiz. Vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazayotgan millionlagan yoshlar vaqt qadrini hadisdan anglaydi. Ilm olishdan maqsadni to‘liq anglab yetmagan o‘qirman ilm olish islam dinida farz ekanligini hadislar orqali anglab yetadi. Bugun biz yoshlarimizning har tomonlama yetuk, har tomonidan esadigan shamollarga yengil uchib ketadigan “barg” kabi bo‘lishini xohlamas ekanmiz hadislarni o‘rgatishimiz, o‘qitishimiz kerak. Eng avvalo, pedagoglar o‘rganishimiz, hadislarni o‘qitish metodikasini to‘liq anglab yetishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Adabiyot. 5-sinf. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. T.: 2024.
2. Adabiyot. 9-sinf. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik. T.: O‘zbekiston NMIU 2019.
3. Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. (Adab durdonalari). T.: O‘zbekiston 1990.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. T.: Hiloc nashr 1990.
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. T.: Hiloc nashr 1990.